

YUSUF XOS XOJIB FALSAFIY MEROSINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629597>

Shermuxamedova Niginaxon Arslonovna

O'zMU professori, falsafa fanlari doktori

Toshkent (O'zbekiston)

Annotatsiya. Yusuf Xos Hojib falsafasi uchinchi ming yillikda ham insonning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, jamiyat ideallarini shakllantirish va gumanitar fanlarni rivojlantirish kontekstida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning g'oyalari an'ana bilan zamonaviylik, ma'naviy qadriyatlar bilan jamiyatni amaliy rivojlantirish vazifalari o'rtasida muloqot qurish uchun qimmatli manba bo'la oladi. Global muammolar avj olgan, madaniy o'zliklar va axloqiy mezonlar parchalanishga yuz tutgan bir davrda Xos Hojib kabi mutafakkirlar merosiga murojaat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Uning adolat, halollik, jamiyatga xizmat qilish va ichki kamolot sari intilish haqidagi da'vatlari ta'lim, siyosat va madaniyat sohalarida dolzarbdir. Bu tamoyillar yangi avlodni — tanqidiy fikrlay oladigan, axloqqa asoslangan qarorlar chiqaradigan va o'z xalqi ma'naviy ildizlari bilan bog'liq qoladigan shaxslar tarbiyalashda poydevor vazifasini bajara oladi. Shu nuqtai-nazardan ushbu maqolada Yusuf Xos Hojib ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ilgari surilgan falsafiy g'oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati Yangi O'zbekistondagi islohotlar misolida ochib berilgan

Kalit so'zlar: inson kamoloti, adolat, davlat boshqaruvi, ilm, jamiyat, mas'uliyat, falsafiy qarashlar, inson ahloqi, vatanga sadoqati, tarbiya.

АКТУАЛЬНОСТЬ ФИЛОСОФСКОГО НАСЛЕДИЯ ЮСУФА ХОС ХОЖИБА В СОВРЕМЕННУЮ ЭПОХУ

Шермухамедова Нигинахон Арслоновна

доктор философских наук, профессор,

Национальный университет Узбекистана,

Ташкент (Узбекистан)

Аннотация. Философия Юсуфа Хос Хожиба сохраняет свою актуальность и в третьем тысячелетии — в контексте воспитания нравственных качеств человека, формирования идеалов общества и развития гуманитарных наук. Его идеи представляют собой ценный источник для построения диалога между традицией и современностью, духовными ценностями и практическими задачами общественного развития. В эпоху глобальных кризисов, распада культурной идентичности и

моральных ориентиров, обращение к наследию таких мыслителей, как Хос Хожиб, приобретает особое значение. Его призывы к справедливости, честности, служению обществу и стремлению к внутреннему совершенству остаются актуальными в сферах образования, политики и культуры. Эти принципы могут служить основой для воспитания нового поколения — личностей, способных к критическому мышлению, принимающих решения на основе этики и сохраняющих связь с духовными корнями своего народа. С этой точки зрения в статье раскрывается значимость философских идей, изложенных в труде Юсуфа Хос Хожива «Кутадгу билиг», на примере реформ в рамках «Нового Узбекистана».

Ключевые слова: человеческое совершенство, справедливость, государственное управление, наука, общество, ответственность, философские взгляды, человеческая нравственность, верность Родине, образование.

THE CONTEMPORARY RELEVANCE OF YUSUF KHOS KHAJIB'S PHILOSOPHICAL LEGACY

Shermuxeimedova Niginakhon Arslonovna

Doctor of Philosophy, Professor,
National University of Uzbekistan,
Tashkent (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. The philosophy of Yusuf Khos Khajib remains relevant in the third millennium in the context of cultivating human moral values, shaping social ideals, and advancing the humanities. His ideas serve as a valuable resource for building dialogue between tradition and modernity, between spiritual values and the practical tasks of social development. In an era marked by global crises, the fragmentation of cultural identities, and the erosion of moral standards, turning to the legacy of thinkers like Khos Khajib holds particular significance. His calls for justice, honesty, service to society, and striving for inner perfection remain urgent across the spheres of education, politics, and culture. These principles can serve as a foundation for educating a new generation—individuals capable of critical thinking, making ethically grounded decisions, and maintaining a connection with the spiritual roots of their people. From this perspective, the article reveals the contemporary relevance of the philosophical ideas expressed in Yusuf Khos Khajib's *Qutadghu Bilig*, using the example of ongoing reforms in the context of the "New Uzbekistan."

Keywords: human perfection, justice, public administration, science, society, responsibility, philosophical views, human morality, loyalty to the homeland, education.

KIRISH.

Raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab olayotgan, suniy intellekt imkoniyatlari inson intellekti bilan tenglashayotgan uchinchi ming yillikda buyuk mutafakkirlarining ijodiga murojaat qilish, tarix bizdan uzoqlashgani sari u davrda yashagan olimlarning asarlarini o'rganishga intilish rivojlanmoqda. Jadal rivojlanayotgan axborot asrida Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodiga murojaat qilishning bosh sababi nima?, degan savolga, tarixiy xotirani saqlash, kejalak avlodga ular g'oyalarining mohiyati etkazish va bu orqali insonning ma'naviy qiyofasini sayqallash deb javob berish mumkin. Shu nuqtai-nazardan, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining olam va odam, jamiyat taraqqiyoti, axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarini ilgari surib, o'z nomini abadiylashtira olgan mashhur mutafakkirlarning buyukligi o'z asarlari bilan zamonaviy olimlarni o'zining nomi atrofida to'play olganligi, asrlar qa'ridan ular qalbiga ilmu ma'rifatga yo'l ochayotganligi bilan belgilanadi deb baho berish, ayni paytda, hozirgi zamon olimlarining buyukligi tarixiy xotirani asrash, saqlash va yangi avlodga etkazish yo'lida doimiy ravishda ilmiy konferensiyalar tashkil etayotganligi, yosh olimlar bilan hamkorlikda buyuklar asarlarini tarjima qilayotganligi va o'tmishi ulug' olimlar g'oyalarining kelajagi buyuk avlodlarga etkazish yo'lidagi fidokorona mehnatini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu nuqtai-nazardan X-XI asrda yashab ijod etgan faylasuf, shoir, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari surilgan g'oyalar nafaqat o'z zamonasida, balki uchinchi ming yillikda davlat boshqarubi, shaxslararo munosabatlar, har bir insonning ichi ma'naviy ruhini tartibga solish, ijtimoiy hayotda bu g'oyalardan foydalanish uchun ahamiyatlidir. Zero O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" [6, 117-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yusuf Xos Hojibning ijodiy merosini tahlil qilish uning tarbiyaga oid g'oyalarini ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlar ongiga singdirish nafaqat Sharq balki G'arb davlatlarida ham tizimli tashkil etilgan. Qirg'iz olimlari Abdukerim Muratov, Jipar Jeksheev Yusuf Xos Hojib ijodining siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy ahamiyatini ochib berganlar va uning 1021-yilda Yettisuv o'lkasida Kuzor, ya'ni Bolasog'un shahrida tavallud torganligi uchun uni qirgiz millatiga mansubligini isbotlashga harakat qilganlar va unga millatning g'ururi deb baho berganlar. Qozoq olimlari G. Telebaev, T. Gabitov, uning ijtimoiy siyosiy qarashlarini, A.I. Lukpanov, B.G. Semenova va N.S. Maynagasheva Yusuf Xos Hojib siyosiy qarashlarini Abay Kunanbaev A. Kulakovskiy asarlari bilan qiyosiy tahlil etganlar. O'zbekiston olimlari G.Rixsiyeva Yusuf Xos Hojibning ijodiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etgan, Sh.M.Isayeva Yusuf Xos Hojib ijodiga fors madaniyati ijtimoiy jarayonlarning ta'sirini, madaniy akademik M. Xayrullaev Ma'naviyat ulduzlari, Buyuk allamalar kabi asarlarida Yusuf Xos Hojib ijodidagi olamning yaralishi, ijtimoiy taraqqiyotga oid g'oyalarning mohiyatini ochib bergan.

Yusuf Xos Hojib buyuk mutafakkir, faylasuf, shoir, shu bilan birgalikda, davlat arbobi sifatida jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi zamondoshlar tomonidan o'rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani yozishda tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). “

X asrda Movaraunnahrda yashab ijod etgan mashhur faylasuf Yusuf Xos Hojib bo'lib, uning - «Qutadg'u bilig» asaridagi adolatli jamiyat va dono hukmdor faoliyatiga oid g'oyalar nafaqat turkiy dunyoda, balki dunyo tamaddunida muhim ahamiyat kasb etadi. «Qutadg'u bilig» shunchaki falsafiy asar emas, balki kelajak hukmdorlar uchun amaliy qo'llanma sifatida yozilgan. U Qaroxoniylar amiriga bag'ishlangan bo'lib, maqsad - yuksak axloqiy ideallarga muvofiq boshqara oladigan hukmdorlar tabaqasini shakllantirishga harakat qilgan. Shu bilan Yusuf Xos Hojib noyob janrni poetik shaklda bayon qilingan hokimiyat falsafasini yaratgan. Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosi turli madaniy va ilmiy an'analar - islomiy, turkiy, forsiy va qadim sharqona ta'sirlarning ifodachisi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uyg'unlashuv turlicha unsurlarning mexanik qo'shilishi emas, balki organik birlashuv bo'lib, uning natijasida o'sha davrning ham diniy, ham dunyoviy talablariga javob bera oladigan o'ziga xos falsafiy tizim paydo bo'ladi.

Uning «Hukmdor hokimiyatni shaxsiy manfaat manbai emas, balki xizmat sifatida ko'rsagina adolatli jamiyat bo'ladi, agar adolat bo'lmasa, davlat qulashi muqarrar» [6, 76-b.], - degan fikrlarning ma'nosi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida to'liq o'z ifodasini topmoqda. Zero, 2016 yilda Yangi taraqqiyot yo'liga o'tgan O'zbekistonda adolatli jamiyat qurish ustuvor g'oyaga aylandi va birinchi islohotlar sud tizimida e'lon qilindi, unga ko'ra O'zbekistonda «Sudyalar yo oqlovchi va yo qoralovchi bo'ladi» [6, 78-b.] va adolatli qarorlar chiqaradi degan tamoyil ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Dostonda Kun-tug'di adolatli, qonunlarni biluvchi, jamiyat tartibini nazorat qiluvchi hukmdor bo'lib, u mutlaq monarx emas, balki fuqarolarning farovonligini ta'minlashga intiluvchi tenglar orasida teng odam sifatida ta'riflangan va hozirgi davrda davlatimiz rahbarining yil davomida har bir viloyatga tashrif buyurishi, fuqarolar bilan muloqot qilishi, ularning dardini eshita olishi uning orzulari ushalganidan dalolatdir.

Yusuf xos Xojibning «hukmdor adolatli va odil, mulahazali, vazmin, o'zgalarning fikrini eshituvchi va vaziyatga to'g'ri baho beruvchi, shaxsiy axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak» [1, 96-b.], - degan g'oyalari O'zbekiston Prezidentining faoliyatida, xususan uning «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» [1], degan fikri asosida muhim islohotlarda o'z ifodasini topmoqda. 2017 yildan buyon O'zbekiston Respublikasining barcha rahbar xodimlari sayyor majlislar uyushtirib, viloyatlar, tumanlarda xalq bilan muloqot qilishi, 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Prezidentining akademiklar bilan uchrashuvi birinchidan Yusuf Xos Xojibning hukmdor fazilatlariga bergan

bahosidagi «o'zgalar fikrini eshita olish», ikkinchidan Amir Temur tuzuklaridagi «mashvarat» g'oyasining ijrosini ta'minlash deb baholash mumkin. Faqat odil hukmdor mulahaza bilan ish ko'rishi va vaziyatga to'g'ri baho berishi mumkin. O'zbekistonda 2024 yilda 10 oy mobaynida turli ayblovlar bo'yicha qamoq jazosini o'tayotgan 4934 nafar mahbuslarning ishlari qayta ko'rilib, ular sud zalida qamoqdan ozod qilinishi, Yusuf Xos Xojibning "Davlatning asosi adolat, yolg'on esa uning inqirozidir" degan fikrlarida va yangi O'zbekistondagi ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yili davomida 482 nafar aholi rasman O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan bo'lsa, keyingi besh yilda 70 ming kishining O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilinishi, qo'shni davlatlar bilan vizasiz rejimning joriy etilishi, Toshkent shahrida fuqarolarning yashashi uchun ta'qiqlarning olib tashlanishi yurtimizda adolat mezoniga rioya qilinayotganligining dalilidir.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida "Aql va maslahatga, qo'rquv va zo'ravonlikka asoslangan boshqaruvni kiyoslagan. Uning fikricha, birinchisi davlat boshqaruvini tartibga soladi va rivojlantiradi, ikkinchisi esa inqiroz va ofatga to'ldiradi. Bu jihatdan uning bu qarashlari Abu Nasr al-Farabiyning "Ideal davlatni bilim va fazilat sohibi faylasuf boshqarishi kerak" degan qarashlari bilan mos keladi. Ichki ishlar xodimlarining faoliyatini takomillashtirish, ularning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun oylik maoshlarini ko'tarilishi, imtiyozli kreditlar asosida avtoullov olish imkoniyatining yaratilishi YAngi O'zbekistonda xavfsiz ko'cha, xavfsiz mahalla, xavfsiz shahar loyihalarining ijrosini ta'minlash uchun qulay vosita vazifasini bajarayotganligi, 2019 yildan buyon oliy ta'lim tizimi professor o'qituvchilarining oylik maoshlari oshirilgani va 30/60 foizlik ustamalarning belgilanishi, shifokorlarning ijtimoiys sharoitlarinnig yaxshilanishi hozirgi davrda aql va maslahatga tayanib amalga oshirilayotgan ishlardan biridir. Mutafakkir fikricha, hukmdor faqat qonunlargagina emas, balki ichki vijdoniga ham tayanishi kerak. SHuning uchun u hokimiyatni cheklashga alohida e'tibor qaratgan, ya'ni "agar hukmdor nafs girdobiga tushib qolsa yoki o'zini ma'qovchi laganbardorlar bilan o'rab olsa - u reallikdan uziladi" [6, 112-b.], - deb ta'kidlagan. SHu bois O'zbekistonda tuy hashamlarini ixchamlashtirish, dafn va to'y bilan bog'liq turli tadbirlarni qisqartirish nafs balosiga qarshi kurash usuli sifatida baholanishi mumkin.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida insonning ichki dunyosi va axloqiy qiyofasiga katta e'tibor qaratgan, u jamiyatda baxt va tartibga axloqiy komilliksiz erishish mumkin emas, deb ta'kidlagan. Axloq - uning fikricha nazariy falsafa emas, balki har bir insonga munosib hayot kechirish va boshqalar bilan hamjihat yashash uchun zarur bo'lgan tirik bilimdir. Bu bilim oilaviy munosabatlardan boshlab, davlat xizmatigacha bo'lgan barcha sohalarini qamrab oladi. SHu ma'noda YAngi O'zbekistonda yuksak axloqli shaxs tarbiyasiga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganligi Yusuf Xos Hojibnnig ideal g'oyalarining ijrosi ta'minlanayotganligidan dalolatdri. Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining

takomillashtirilishi va unga deyarli barcha shu yoshdagi bolalarning jalb qilinishi, maktab ta'limiga tarbiya fanining kiritilishi, oilaviy munosabatlarda ajrimlarni kamaytirishga yo'nalgan ma'rifiy faoliyatning tashkil etilishi, hatto jinoiy ishlari uchun jazo tayinlangan maxbuslarning masofaviy ta'lim orqali oliy ma'lumotli bo'lishi uchun sharoitlarnig yaratilishi O'zbekiston fuqarolarini yuksak ma'naviy ruhda tarbiyalashga yo'nalgan sa'y harakatlardir.

Mutafakkir ushbu asarida har bir insonning fazilat va xislat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, "Inson o'z ustida ishlashi, kamtar, shukrona qiluvchi, rostgo'y va olijanob bo'lishi shart" [6, 117-b.]. Buning uchun esa, I.Kant aytganidek har bir inson o'zida intizom madaniyatini va ko'nikma madaniyatini shakllantirish lozim. O'z faoliyatiga qo'yilgan qat'iy talablar orqali inson intizom madaniyatini shakllantira olsa, unda albatta ko'nikma madaniyati shakllanadi va pirovard natijada u o'z hayotining ma'nosiga erisha oladi. Zero Yusuf Xos Xojib aytganidek, "Haqiqiy kuch zo'ravonlikda emas, balki o'zini tiyish, qiyin paytlarda ham adolatli bo'lish qobiliyatida namoyon bo'ladi" [2, 114-b.] va "inson so'zi amaliga mos kelmasa, aqli esa faqat o'z manfaatiga xizmat qilsa — u sazovor shaxs deb hisoblanmaydi". Madomiki shunday ekan, uning axloqiy tarbiyaga oid g'oyalari shaxsning jamiyat bilan uyg'unligini o'rnatish, ishonch, o'zaro yordam va hurmatni mustahkamlashga qaratilgan, - degan xulosaga kelish mumkin. Zero xulq-atvor faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy tartibning poydevori hamdir. SHu tariqa, Xos Hojibning falsafiy qarashlari insonning shaxsiy va ijtimoiy, ma'naviy va amaliy qirralarni birlashtiradi va o'quvchini insonning ichki madaniyati bilan butun xalq taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqida o'ylashga da'vat etadi.

Yusuf Xos Hojib merosini ilmiy qayta baholash orqali turli fanlar kesishuvdagi yondashuvlarni ham rivojlantirish mumkin: uning g'oyalari faqat falsafa doirasida emas, balki adabiyotshunoslik, dinshunoslik, siyosatshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan ham tahlil etilishi mumkin. SHu tariqa, Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosi XXI asrda ham inson ma'naviy yo'nalishi, milliy o'zlik va gumanitar bilim rivojiga hissa qo'sha oladigan tirik intellektual manba bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosi - Birinchi renessans davrining muhim boyliklaridan biri bo'lib, uning asarlari, ayniqsa «Qutadg'u bilig» (Baxt saodatiga eltuvchi bilim) asari, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning falsafasi nafaqat o'z zamonasida, balki hozirgi zamonda ham jamiyat, davlat boshqaruvi, axloq, ta'lim-tarbiya va inson kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojib falsafiy merosining hozirgi davrdagi ahamiyati:

1. Adolat va boshqaruv tamoyillari. Yusuf Xos Hojib inson va jamiyat munosabatlarida adolatni eng oliy qadriyat deb bilib, hokimiyat egalariga odilona boshqaruv, xalq bilan muloqotda samimiylilik va mas'uliyatlilikni tavsiya etadi.

Bugungi kunda davlat xizmatchilari va rahbar kadrlar uchun bu g'oyalar juda muhim.

2. Axloq va ma'naviy tarbiya. Uning ta'limotida axloq-odob, insoniy fazilatlar — rostgo'ylik, sabr-toqat, muruvvat, ilm va ta'limga intilish kabi masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Bu, ayniqsa, globallashuv va axloqiy inqiroz davrida juda ahamiyatli.

3. Ilmga bo'lgan munosabat. Yusuf Xos Hojib ilmni insonni tarbiyalovchi va jamiyatni ravnaq toptiruvchi asosiy kuch deb biladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu g'oyalar ustuvor ahamiyatga ega.

4. Mamlakat taraqqiyoti uchun fikrlar. Muallif davlat qurilishi, uning mukammal tuzilishi, davlat rahbarining fazilatlarini, qonun ustuvorligi haqida chuqur falsafiy mulohazalar yuritgan. Hozirgi islohotlar davrida ushbu g'oyalar amaliy qiymatga ega.

5. Milliy o'zlikni anglashdagi roli. Yusuf Xos Hojibning asarlari milliy qadriyatlar, turkiy til, madaniyat va o'zlikni anglashda katta ahamiyatga ega. Uning asarlari yosh avlodda vatanparvarlik, milliy iftixor va ma'naviy etuklikni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligi munosabati bilan nutqi. – Toshkent: 2017 yil.
2. Maqsud SHayxzoda. Ustodning san'atxonasida. Birinchi maqola // Asarlar. Olti tomlik. To'rtinchi tom. g'azal mulking sultoni. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 216 b.
3. Karimov Q. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". – Toshkent: Fan, 1971. – 48 b.
4. Rahmonov N., Hamroqulova X. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 71 b.
5. Fitrat A. Qutadg'u bilig // Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi. H.Boltabonev). 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 336 b.
6. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" (Saodatga yo'llovchi bilim). Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.

KUTADGU BİLİĞ KAHRAMANLARININ ADLANDIRILMASINDA KADİM TÜRK DÜNYA GÖRÜŞÜNÜN YANSIMALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629655>

Prof. Dr. Serkan Şen
Ondokuz Mayıs Üniversitesi
Türkçe Öğretim Merkezi Müdürü
serkansen@omu.edu.tr

Tarihî metinlerde geçen kahramanların adlandırılması, çoğunlukla belli bir gaye etrafında gerçekleşmiştir. Başka bir deyişle dil biliminin göstergenin nedensizliği ilkesi, kadim eserlerdeki kişi adları için büyük ölçekte söz konusu değildir. Haddizatında eski Türklerdeki er adı geleneği, ad ve şahsiyet arasında kurulan ilişkinin bir yansıması olarak ortaya çıkar. Erken İç Asya Türk topluluklarında çocuk doğduğunda verilen ve “oglan atı” denilen geçici ad, onun ileride sergilediği karakteristik özellikleri neticesinde “er atı” ile anılmasıyla beraber değişime uğramaktadır. Kutadgu Bilig’in daha girişinde kahramanların adlarıyla onların temsil ettikleri değerler arasındaki ilişkiye yer verilmiştir. Buna göre Kün Togdı adlı hükümdar, adaleti; Ay Toldı adlı vezir, talihi; Ay Toldı’nın oğlu olup sonrasında kendisi de vezirlik makamına gelen Ögdülmiş adlı yönetici, aklı; Ögdülmiş’in tavsiyesi uyarınca şahsına sunulmuş vezirlik tekliflerini geri çeviren Odgurmuş adlı zahit ise kanaati temsil eder. Zikredilen bu kahramanlara Yusuf Has Hacib’in verdiği adlar, onun yaşadığı çağda geçerli Türk dünya görüşünün temellerini yansıtan sembollerdir. Bildirimizde bu sembollerin kadim Türk kültürü içinde temsil ettiği değerler, metin içi ve metinler arası bir yaklaşımla ele alınacaktır. Adlar üzerinden izini sürdüğümüz kavramların sembolize edilmesinde ortaya konan tercihlerin gerekçeleri incelenecektir. Bu seçimlerin Türk halklarının düşünce tarzına yön veren kaynakları üzerinde durulacaktır. Adlandırmalarda üst katman olarak benimsenen göstergelerin alt katmanında yatan bileşenler belirlenmeye çalışılacaktır. Türk halklarının o dönemde eriştiği yüksek medeniyet seviyesini hazırlayan felsefi ortamın oluşum süreci üzerine değerlendirmelerde bulunulacaktır.